

**YOSHLAR TARBIYASIDA "O`TKAN KUNLAR" ROMANINING AHAMIYATI****Ismoilova Marhabo Boysarovna***Qarshi Davlat universiteti, adabiyoshunoslik kafedrası o'qituvchisi.***Porsiyeva Zamira Muxtorovna***Qarshi Davlat universiteti, adabiyoshunoslik kafedrası o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada diqqatimizni maktab adabiyot darsliklariga kiritilgan Imom Buxoriy, Rabg'uziy, Ahmad Yassaviy kabi boshqa mutasavvuf allomalar asarlarini nazardan soqit qilmagan holda, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani tahlili orqali o'quvchilarga singdiriladigan diniy-ma'rifiy tushunchalarga qaratmoqchimiz.

Kalit so'zlar: O'tkan kunlar, Abdulla Qodiriy, tarbiya, maktab, ta'lim, metod.

Abstract: In this article, we want to focus our attention on the religious and educational concepts that are instilled in students through the analysis of Abdulla Qadiri's novel "Bygone days" without forgetting the works of other mystic scholars such as Imam Bukhari, Rabguzi, Ahmed Yassavi included in school literature textbooks.

Keywords: Bygone days, Abdulla Qadiri, education, school, education, method.

Аннотация: В данной статье мы хотим сосредоточить свое внимание на религиозных и воспитательных концепциях, которые прививаются учащимся посредством анализа романа Абдуллы Кадири «Минувшие дни», не забывая при этом работы других ученых-мистиков, таких как Имам Бухари, Рабгузи Ахмед Яссави включен в школьные учебники литературы.

Ключевые слова: Минувшие дни, Абдулла Кадири, образование, школа, воспитание, метод.

KIRISH

Abdulla Qodiriy iymon-e'tiqodli, pokiza tabiat, haqiqatgo'y inson bo'lgan. Bu fazilat-xislatlar uning romanlariga ham ko'chgan, albatta. Yozuvchi va shoirlar asosan o'z dunyosini, his-tuyg'ularini kitobxonga ma'naviy oziqa sifatida taqdim etadi. Abdulla Qodiriy romanlaridagi ana shunday go'zal estetik g'oyalardan biri - iymon- e'tiqod masalasi bugungi kunda qadrlanib- kattalashib, ko'zga aniqroq ko'rinadigan, fikrga quvvat, dilga zavq beradigan holat kasb etmoqda. "O'tkan kunlar" romanidagi ma'naviy-ruhiy jihatidan nisbatan mukammal qahramonlardan biri - Yusufbek hoji obrazidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bu obraz aynan hojiligi e'tibori bilan yuksak maqomda tasvirlanadi. Olloh buyurgan farzi hisoblangan haj amali va asl hojilar qanday bo'lishligi haqidagi tushunchani shu obraz orqali singdirilishi maqsadga muvofiqdir. Hojilik sifati Yusufbekning din arkonlarini to'kis ado etuvchi halol, pokiza bir inson ekanligini anglatadi, ma'naviy-ruhiy jihatdan aql-zakovati, fahm-farosati, go'zal odobi, muomala-



munosabati o'quvchi ko'z oldida nur yuzli siymoni gavdalantiradi. Romanda hoji qatnashgan sahnalar ko'p emas. Ammo Yusufbek siyimosining ma'naviy quvvati butun roman borlig'iga nur bag'ishlaydi. Bu qahramonning salobati oz gapiradi, ko'p eshitadi, kam kuladi, musibatdan darhol ko'zi yoshlanadi: "Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotini bilangina emas umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa- bo'lsin uzoq so'zlashib o'tirmaydir... Hoji bir necha vaqt so'zlaguchini o'z og'ziga tikiltirib o'lturg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa "xo'p" deydir, gapga tushunmagan bo'lsa "xo'sh" deydir, noma'qul bo'lsa "durust emas" deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa bir iljayish bilan kifoyalani, mundin boshqa so'z aytmaydir..." [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Qahramon tabiatiga xos bu chizgilar uning dinga, shariatga e'tiqodini, bejizga "Xudoning farz qilgan hajini ado qilmagan" komil qiyofasini ko'rsatadi. Zero, ulug' ma'rifat sohibi, olim Abu Homid G'azzoliy "Til ofatlari kitobi" asarida: "Bilgin! Kimki tilning jilovini bo'sh qo'yib yuborsa, shayton uni minib oladi... Odamlar "tillari ekan hosillar" tufayli jahannamga yuz tuban qulaydi. Faqat shariat bilan jilovlangan tilgina bu ofatdan najot topadi" [3], - deydi.

Yusufbek hoji "shariat bilan jilovlangan til"i bilanoq yuksak mavqelarga ko'tarila olgan va "... bir so'z bilan ko'p ma'nolarni ifodalash quvvati" mohiyatini anglagan xos ulamo timsolidir.

Asar voqealaridagi bir majlis-ziyofatda Yusufbek hoji Yunus Muhammad oxund og'zidan Rasululloh (sallollohu alayhi vassallam)ning: "Iza vasadal amru ila g'ayri ahlihi fantazir as-soata" (ya'ni, agar bir qavmning ishi noahl odamg'a topshirilgan bo'lsa, bas, o'shal qavmning qiyomatini yaqin bil), degan hadisini eshitib: "Voy bo'lsin biz badbaxtlar holig'a", deydi. "Bu soqol shu el qayg'usida oqardi. Bu ko'ngil shu manfaatparastlar ta'sirida qoraydi. Yoshim oltmish beshka yetib bir vaqt bo'lsin ibodatimni janobi Haqqa bevosita yo'naltirg'animni va ko'ngil ko'zim ochilib qilg'on sajdami xotiray olmayman... Endi mundan keyingi besh kunlik umrim dunyo mojarolaridan etak silkib go'sha'i oxirat tadorikini qilmog'im uchun g'animat ko'rinadir" [1], - tarzida xulosa chiqarishi ma'rifatli shaxs ekanligini dalillaydi.

Komil inson qiyofasidagi bu qahramon xalqqa ham, o'z e'tiqodiga ham xiyonat etishni istamaydi. Zero, "xalq Yusufbek hojidan bir zarra yomonliq yoki bo'lmag'ur bir kengash eshitmagan...", "mansab borasida nihoyatda ta'masiz", "xalq manfaatini kuzatkuchi bir odam" ekanligi asar qahramonlari tilidan e'tirof etiladi.

Roman sahifalarida Hoji Kumushning ko'zi yorishi arafasida "xursand va xafaligi noma'lum bir qiyofada "Daloyil" o'qib o'tirgan" holda tasvirlanadi. Shu o'rinda "Daloyil"ning qanday kitoblighi, mazmun- mohiyatini izohlash Yusufbek hoji siyimosini va ma'naviy-ruhiy dunyosining komilligini to'kis ochib beradi:

"Daloyil-ul hayrot" muallifi Muhammad Ibn Sulaymon Juzuliydir. Kitobni o'qish shartlari va odoblari bor, ya'ni kitobni o'qigan shaxs quyidagi talablarni to'la-to'kis ado qilishi kerak:



1. Komil bir shayxdan izn olgan bo'lishi;
2. Uni o'quvchi kishi yeyish, ichish, savdo- sotiqda halol bo'lishi;
3. O'zi ham, kiyim-kechagi ham toza bo'lib, uni o'qishda xatoga yo'l qo'ymasligi;
4. Tajvid (to'g'ri talaffuz) qoidalariga amal qilishi, duo va tasbehlarning ma'nosini bilishi kerak.

Abdulla Qodiriy bunday mo'tabar kitoblar qadr-qiyamatini yaxshi bilgan, albatta. Kitob mohiyati ortidagi sir-sinoatni, umummohiyatni anglab olish o'quvchi ko'zi o'ngida "Daloyil" o'qiyotgan Yusufbek hoji siymosini yana ham serfazilat, ma'naviy-ruhiy dunyosi yorqin ko'rinishiga sabab bo'ladi. Demak, Yusufbek hoji diniy ilmi mukammal, amali sobit islomiy shaxs timsolidir. Bu obrazni chin dildan "Qur'on" va "Daloyil" mutolaasiga berilgan inson tasvirida ko'rgan, fikrlari bilan tanishgan, mag'zini chaqqan, badiiy jozibasi va mantiqiy qudratidan xabardor bo'lgan yoshlarimizda imyon, e'tiqod masalasiga bo'lgan munosabatida o'zgarish, tabiatida, ma'naviyatida rivojlanish sodir bo'lishi muqarrardir.

NATIJALAR

Asarda e'tibor beriladigan yana bir diniy-ma'rifiy tushuncha bu taqdiri azal mavzusidir. Islom arkonida taqdir imyon shartlaridan biri xisoblanadi.

"Olamda har bir bo'ladigan narsalarni va qilinadigan ishlarni Alloh taoloning azalda tayin va muqarrar qilib qo'ymoqligidir" [4]. Zotan, islom dini e'tiqodi asosida shakllangan o'zbek klassik adabiyotida, xususan, "O'tkan kunlar" romanida taqdir motivlari ko'p uchraydi.

Asarni o'quvchilarga tushuntirishda davom etar ekanmiz, romanning muqaddimasidagi azon so'ziga diqqatni jalb qilamiz:

"1264-nchi hijriya, dalv oyining 17-nchisi, qishqi kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir..." yoki "Otabek bu gal oltinchi qo'nishda yetdi. Tevarakdan asr azoni (ta'kid bizniki) eshitiladigan vaqtda otdan qo'ndi...". Yoki: "U yoq-bu yoqdan shom azoni eshitila boshlagan edi. Ma'lum otliq qutidorning darbozasida otini to'xtatdi-da, o'ng oyog'ini uzangudan uzdi. Shu vaqtda shom namozidan qolmas uchun shoshilib qutidor ham yo'lakdan chiqib keldi...»

Islom dinimizning muqaddas farzi hisoblangan namozga chorlovchi azon duosi ilohiy kalimalardan biridir. Romanda bu islomiy hodisa namoz tasviri bilan parallel ravishda asar qahramonlari faoliyatida berib boriladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Yurtimiz tinch, hayotimiz osuda va farovon bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda jamiyatimizda, xususan, yoshlar orasida turli jinoyatlarning sodir bo'lishi, oilaviy kelishmovchiliklar va ajrimlarning ko'payishi, arzimagan narsaga sotilib ketishlariga aksar hollarda imyon-e'tiqodining sustligi sabab bo'lmoqda. Zero, din ahloqdir. Muqaddas dinimizda inson kamoloti go'zal xulqqa ega bo'lish bilan o'lchanadi. Maktab o'quvchilariga diniy-ma'rifiy tarbiya berish shu jihatdan muhimdir.



Diniy-ma'rifiy tarbiyani adabiyot darslarida o'rganiladigan asarlar tahlili orqali singdirish samarali omillardan hisoblanadi. Chunki bu yo'l "ijtimoiy nasihatlar"dan, zo'riqishlardan holi jarayon bo'lib, o'kuvchi qahramonlar bilan bir havodan nafas oladi, ularning yurak urishlarini eshitgandek bo'ladi; go'yo Otabek bilan yonma-yon yuradi, "Siz o'shami?" degan hayajonli savolni xotira devoriga muhrlab qo'yadi. Yuzlaridan nur yog'ilib turgan Yusufbek hojining purhikmat o'gitlaridan bahra oladi. Kumushning achchiq qismatini ko'rib, beixtiyor ko'zlari yoshlanadi. Zaynabga "bechora" deydi. Negaki badiiy asarlarda jon bor, tiriklik bor, umr mohiyati mujassam.

Ana shunday ohangrabo kuch o'quvchiga insoniy umr mazmun-mohiyati bo'lgan diniy- ma'rifiy ilmni teranroq anglashida samarali bo'ladi. Jumladan, o'quvchi axloqi go'zal, ma'nan yetuk mo'min-musulmon bajarishi kerak bo'lgan farzlaridan biri haj amali va hojilik maqomi haqidagi tushunchani Yusufbek hoji obrazi vositasida teranroq anglaydi.

Taqdiri azal iymon shartlaridan biridir. Qodiriy qahramonlari tabiiy ravishda taqdiri azal hukmi ostida harakat etadilar. Ba'zi o'rinlarda adib o'z qalamining ojizligini tan olishi ham shundandir, bizningcha. Agar shunday bo'lmaganda edi, taqdiri azal hukmidan qochib qutula bilmagan Kumush bibining jasadi ustida Qodiriyning o'zi yum-yum yig'lamagan bo'lur edi.

Azon duosi ilohiy kalima, shaytonni quvlash marosimidir. Roman voqealari azon eshinishi tasviri bilan boshlanadi va asar davomida azon va namoz tasvirlari berib boriladi. Asarda vaqt ifodasi uchun "shom azoni", "subh namozi", "bomdod vaqti", ya'ni, kunda farz o'laroq besh mahal ado qilinadigan namoz vaqtlari yuksak ma'no kasb etadi.

Roman qahramonlari boshidan kechayotgan voqealarning shu tarzda namoz vaqtlari negizida belgilanishi o'quvchi shuurida dinimizning buyuk farzi hisoblangan namozga nisbatan tabiiy sezim va iymon etiqodning shakllanishiga omil bo'lib xizmat qiladi.

Xolbuki, Qodiriy asarlarida, faqat ma'naviyatgagina emas, tafakkurga ham ijobiy ta'sir ko'rsatish qudrati mavjuddir. Shu nuqtai nazardan, Abdulla Qodiriy asarlarini chuqur o'rganish islom qadriyatlarini va madaniyatini to'g'ri anglash hamda qabul qilish, o'quvchilarga islom dinining mazmun- mohiyatini yetkazish uchun ham muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2011-jild. - 591 b.
2. A.Qodiriy. O'tkan kunlar. - T.: "Navro'z", 2019. - 386 b.
3. Abu Homid G'azzoliy. Til ofatlari kitobi. - T.: "Sharq", 2014. - 175 b.
4. Ahmad Xodiy Maqsudiy. Ibodati islomiya. - T.: "Mehnat", 1991. - 102 b.



5. Рашидов, Д. (2022). ИЖТИМОЙ ЕНТИЙОЖМАНД ТОИФАГА МАНСУБ ШАХСЛАРНИ ТРАНСПОРТ КОРХОНАЛАРИДА ИШГА JOYLASHTIRISH UCHUN ISH O'RINLARINI ZAXIRALASH. Scienceweb academic papers collection.

6. www.ziyonet.uz
7. www.natlib.uz
8. www.kun.uz
9. www.adabiyot.com
10. www.cyberlen.com